



Expression of pragmatic relationships in text and speech through gender markers

Mansur KUCHIBAYEV¹, Nigora NIZAMIDDINOVA²

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024
Received in revised form
10 December 2024
Accepted 25 December 2024
Available online
25 January 2024

Keywords:

pragmatics,
gender character,
gender of the recipient,
linguistic signs,
semantic field,
communicative situation,
stereotypes,
speech movement.

ABSTRACT

This article examines the role of gender-marked words in language and communication, focusing on how they reflect pragmatic goals, speech acts, and social relations. It discusses the semantic categories of gendered vocabulary, including terms related to sexual differences, age, family relations, social roles, and professions. The study highlights how gendered language shapes communication, influencing not only information transfer but also persuasion, emotional impact, and power dynamics. Additionally, it explores the influence of cultural and social factors on the formation of gender stereotypes in language and their pragmatic implications across various linguistic contexts.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp213-219>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Matnda va nutqda pragmatik munosabatlarning gender belgilarida ifodalanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

pragmatika,
gender belgi,
adresat genderi,
lisoniy belgilar,
semantik maydon,
kommunikativ vaziyat,
stereotiplar,
nutqiy harakat.

Ushbu maqola tildagi va muloqotdagi gender belgilangan so'zlarning rolini tahlil qiladi, bu so'zlarning pragmatik maqsadlar, nutq aktlari va ijtimoiy munosabatlarni qanday aks ettirishiga e'tibor qaratadi. Maqolada jinsiy farqlar, yosh, oilaviy aloqalar, ijtimoiy rollar va kasblarni ifodalovchi gender leksikasining semantik guruhlari muhokama etiladi. Tadqiqot gender tilining muloqotni shakllantirishi, nafaqat ma'lumot uzatishga, balki ishontirish, hissiy ta'sir va kuch munosabatlari ham ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada madaniy va ijtimoiy omillarning tildagi gender stereotiplarning shakllanishiga ta'siri va ularning turli lingvistik kontekstlardagi pragmatik oqibatlari o'rganiladi.

¹ Teacher, Uzbek-Finnish Pedagogical Institute. Uzbekistan, Samarkand.

² Teacher, Uzbek-Finnish Pedagogical Institute. Uzbekistan, Samarkand. E-mail: m6160612k@gmail.com

Выражение прагматических отношений в тексте и речи посредством гендерных маркеров

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

прагматика,
гендерный характер,
гендер адресата,
языковые признаки,
семантическое поле,
коммуникативная
ситуация,
стереотипы,
речевое движение.

В данной статье исследуется роль гендерно маркированных слов в языке и коммуникации, с акцентом на то, как эти слова отражают прагматические цели, речевые акты и социальные отношения. В ней рассматриваются семантические группы гендерной лексики, такие как слова, выражающие половые различия, возраст, семейные отношения, социальные роли и профессии. Исследование подчеркивает, как гендерно окрашенный язык формирует общение, влияя не только на передачу информации, но и на убеждение, эмоциональное воздействие и динамику власти. Кроме того, анализируется влияние культурных и социальных факторов на формирование гендерных стереотипов в языке и их прагматические последствия в различных лингвистических контекстах.

Pragmatika bugungi kunda lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi kommunikativ maqsad, nutqiy harakat va munosabatlarni o'rganuvchi fan sifatida ta'riflanadi. Muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan "hamkor"ga (tinglovchiga, kitobxonga) ta'sir o'tkazish, uni biron-bir narsaga ishontirish, bo'ysundirish, harakatga undash so'zlovchilar tomonidan o'z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirish-yoqtirmasliginini, norozilik, hayrat kabi pragmatik maqsadlar, nutqiy harakatlar, munosabatlar kuzatiladi. Bunday munosabatlar ayniqsa gender belgisi so'zlarda o'ziga xos ifodalanadi.

Gender belgisi so'zlar odatda ma'lum bir konsept ichida leksik-semantik guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Masalan, "odam" konseptiga kiruvchi genderli so'zlarni quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1) jinsiy farqlarni ifodalovchi gender belgisi so'zlar (*erkak, odam, inson, ayol, xotin, rafiqqa qiz, o'g'il*);

2) insonning yosh-qariligini ifodalovchi semantik guruh (*yosh qiz, yosh o'g'il bola, go'dak, ayol, erkak, chol, kampir, boboy, qariya, oqsoqol*);

3) qardoshlikni ifodalovchi genderli semantik guruh:

– referentning ayol kishiligini ifodalovchi birliklar: *buvi – ona, singil, xola, amma, kelin, qalliq; rafiqqa, yanga, qayin singil; qaynona*;

– referentning erkak kishiligini ifodalovchi birliklar: *bobo, aka, birodar, tog'a, pochcha, og'ayni, oshna*;

4) oilaviy ahvolni ifodalovchi gender so'zlar: *er-xotin; bo'y qiz – turmushga chiqmagan qiz, yesir, to'l, bo'ydoq*;

5) shaxslararo yaqinlikni, mehribonlikni ifodalovchi gender so'zlar odatda kattalar tomonidan kichiklarga erkalatish ma'nosida, yoki erkak kishining ayolga pragmatik munosabatini ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu o'rinda odatda narsa va tushunchalarning qimmat baholigi, go'zalligi, shirinligi, yoqimlilik assotsiatsiya qilinadi:

azizim, mehribonim, mushukcham, qimmatligim, oltinim, yulduzim, kaptarim, qushcham, azizim, dilbarim, go'zalim, asalim, gavharim, qo'zichog'im, oppog'im, erkatoyim, oy yuzligim, dilbarim, quyoshim, malikam va h.;

6) *referentning biron-bir ijtimoiy guruhga mansubligini ifodalovchi gender so'zlar qiro'l-qirolicha, – shahzoda, malika, gersoginya, dehqon, rohib-rohiba, kotib-kotiba, rahbar, rahbar ayol, taqdir, eshon bobo, rais bobo;*

7) *biror millat yoki etnik guruhga mansubligini ifodalovchi gender so'zlar: negritiyanka, irlandiyalik- irlandiyalik ayol (yoki qiz), -lo'li- lo'li ayol;*

8) *kasbni, mashulot turini ifodalovchi gender so'zlar: tikuvchi, chevar – jodugar;- balerina, imperator ayol;*

9) *seksual moyillikni ifodalovchi gender so'zlar:*

buzuq ayol; manjallaqi, xotinboz, bokira;

10) *qo'rinishni, xulq- atvorni xarakterlovchi gender belgili so'zlar:*

mallasoch-mallasoch ayol, ko'ngli yumshoq ayol, hazilkash, ochko'z, urushqoq, janjalkash – yalmog'iz, qaqqajon, vaysaqi, mijg'ov;

11) *kelib chiqishini, yashash joyini ifodalovchi gender belgili so'zlar : aslzoda, malika, zadogon, eshon, xo'ja, oqsuyak.*

Leksik semantik guruh (LSG) shunday qilib “bir xil qiyoslanuvchi ma'no anglatuvchi leksik birliklar majmuasidir, ular tilning tarixiy taraqqiyot jarayoniga bog'liq bo'lgan o'ziga hos ijtimoiy xususiyatlarini ifodalaydilar ” [Филиппенко 2001: 119].

U yoki bu semantik maydonga kiruvchi so'zlarning ko'pligi ijtimoiy madaniy faktorlarga bog'liq.

Matnda yoki suhbatdoshlar muloqotida ikki jinsga mansub kishilar nutqining leksik semantik maydonining aniqlanishi nutqning gender xususiyatlari muallif-so'zlovchi (adresat), tinglovchi, kitobxon(adresant) nutqidagi gender (jinsga oid lisoniy birliklar) xususiyatlarining pragmatik maqsad, harakat, munosabat sifatida ayollar va erkaklar nutqining bir til va qiyoslanib o'rganilayotgan tillar doirasida tadqiq qilish imkoniyatlarini beradi.

Bunday tadqiqotni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal qilinishi lozim:

– erkak yoki ayol suhbatdoshlarning muloqotga kirishuv jarayonidagi pragmatik munosabatlari tiplarini aniqlash;

– matni hosil qilishda turli jins vakillariga xos genderli pragmatik munosabatlarni aniqlash.

Gender xususiyatli so'zlarning pragmatik asoslari A.V. Kirilina (1998), Ye.I. Goroshko (1999), R.K. Potapov (2002), V.V. Potapova (2006), I.I. Xaleyevalarning (2000) tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan va ularda gender stereotipi “Har ikki jins vakillarining xulqiy meyorlarida atribut va sifatlarida madaniy va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq holda shakllangan va nutqda, matnnda voqelanadigan belgilar” sifatida ta'riflanadi. [Кирилина,1999:63].

Gender – bu ijtimoiy yoki ijtimoiy madaniy jinsga oidlik belgisi hisoblanib, u lisoniy kategoriya emas, ammo uning mazmuni lisoniy pragmatik maqsad, harakat va munosabatlarni tahlil qilish orqali ochilishi mumkin. Bunda so'z orqali suhbatdoshning jinsiga, madaniyatiga, ijtimoiy mavqesiga, psixologik xususiyatlariga doir pragmatik axborotlar oydinlashadi va u nutq faoliyatining turli aspektlarini o'rganuvchi matn pragmatikasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Adresat genderi kommunikativ vaziyat hosil qilishda va gapiruvchi (muallif) shaxsning nutqiy harakatlarini oldindan payqashda muhim omillardan hisoblanadi.

Odatda kundalik muloqot jarayonida adresatning o'zi ham shaxsan genderli ishtirokchi hisoblanadi. Adresat genderining muloqotni tashkil qiluvchilik funksiyasi notanish va unchalik yaqin bo'lmagan kishilarga nisbatan voqelanadigan nutqiy harakatda, ayniqsa muloqotning boshlanishida kuchayishi bilan ko'zga yaqqol tashlanadi. Masalan: *“Yaxshi qiz, meditsina institutiga qanday avtobus qatnashini aytolmaysimi?”* Adresat genderni aniqlash bu o'rinda kontekst orqali, kommunikativ vaziyat yoki genderli so'z: *“yaxshi qiz”* orqali aniqlanadi: demak, adresat yosh yigit, u talaba; uning maqsadi yo'l so'rash. Ayni paytda genderli lisoniy vosita adresatning emosional ekspressiv nutqiy harakatini ham ifodalayapdi. Bu nutq aktidagi genderli murojaatning mavzuiy va stilistik (emosional-ekspressiv) belgilarilari (markerlari) hisoblanadi. Aynan bunday genderli vositalar muloqot aktining kommunikativ ta'sirini ham belgilaydi. Binobarin adresant yosh yigit murojaatidagi *“yaxshi qiz”* so'zini eshitmaganida edi, adresatning nutqiy harakati, maqsadi, munosabati natijasiz qolgan bo'lardi.

“Erkaklar murojaatida genderli belgilar ayollarnikiga nisbatan kamligi bilan xarakterlanadi” [Vejbitskaya 1996: 41]. Demak, *“Adresat bu kommunikativ ta'sir qiluvchi shaxs sifatida muloqot mohiyatini aniqlab beruvchi figuradir”* [Бородина 2001:120].

Tadqiqotlarda adresatning muloqot subyekti sifatidagi quyidagi funksiyalari farqlanadi:

1) adresant tinglovchiga matnni idrok qildiruvchi va tushuntiruvchi subyektdir;

2) adresat (gapiruvchi shaxs, muallif) adresantdan nutqiy axborotni eshitib (lokutiv harakatni) til vositalarini tanlab (emotsiyalar, munosabatlar, harakatlar orqali), javob nutqi vujudga keltirishga majbur qiluvchi undovchi subyektdir.

Bunday holatda turli jinsga va genderga mansub shaxslarning nutqiy harakatlaridagi farqlar quyidagi gender belgilarda o'z aksini topadi:

– **fonetik markerlar**– bu tur o'z ichiga eng avvalo erkaklar va ayollar nutqidagi ovoz tonining balandligi yoki pastligi, tovush tembri, intonatsiyalash, pauzalar, mantiqiy xulosalash turlarida o'z aksini topadi;

– **morfologik markerlar** – bu tur o'z ichiga ma'no-mazmuni bilan mujskoy va jenskoy rodga mansub so'zlarni hosil qiluvchi belgilarda o'z aksini topadi; (o'zbekcha: ojiz-ojiza, ozod-ozoda, rafiq-rafika; fransuzcha: maitre-maitresse, poëte-poëtesse, instituteur-institutrice, conte-contesse);

– **leksik markerlar** – erkak va ayollar nomini, yoki o'z semantik komponentida erkak va ayol tushunchasini ifodalovchi so'zlarni qo'llanishida o'z aksini topadi; (Teshaboy, Boltaboy, Anora, Yo'lchi, Gulnor, ma'shuqa, ojiza, adiba);

– **ekspressiv-stilistik markerlar** muloqot jarayonida yo erkaklar yo ayollar uchun ko'proq xarakterli bo'lgan so'z va konstruksiyalarni qo'llanilishida o'z aksini topadi. Odatda faqat erkaklar steriotipiga mansub so'zlar sifatida *“qo'pol so'zlar”* tushuniladi (pondavoy, xezalak, mishiqi, ko'rnamak, manjalaqi, laqma); ayollar steriotipiga mansub so'zlar sifatida yuqori darajali stilistik bo'yoqdor so'zlar yoki his-hayajonli, erkalatuvchi, ko'tarinki nutqlar, diminutivlar va b. tushuniladi (asalim, shakarim, paxmog'im, ayiqvoy);

– **tematik markerlar** – steriotip jihatdan erkaklar va ayollar mavzusiga bog'liq bo'lgan so'zlarni qo'llanishida o'z aksini topadi [Горошко, Кирилина 1999: 234-241].

Yuqorida berilgan markerlarning barchasi adresat, adresant yoki uchinchi shaxs nutqlarida uchrashi mumkin. Agar zonalarning qaysi biridadir markerlar kamroq bo'lsa, bunday holda jins – gender noaniqligi vujudga keladi va bu kommunikativ vaziyat yoki kontekst orqali aniqlanishi mumkin.

O.S. Issersning ta'kidlashicha, muloqot jarayonida adresat nutqi quyidagi parametrlarda o'z aksini topadi:

- u o'z nutqida o'z “men”ini, shaxsiy xususiyatlarini (bevosita yoki bilvosita, o'z mavqeini ko'tarish yoki pasaytirish darajasida) namoyon qiladi;

- so'zlarni qullashda odobliligini (xushmomalalik borasida suhbatdoshini o'ziga jalb qilishga qiziqish yoki kiziqmasligigini) namoyon qiladi;

- fikr almashinuv jarayonida suhbatdoshlar o'z nutqlarining kommunikativ-pragmatik ta'sirning samaradorligi nazorat qiladilar (ohangni ongli tarzda tanlaydi, vaziyat va holatni boshqaradi) (Иссепс 2002:173).

Kundalik muloqot jarayonida genderli murojaat kishilar hayotida har kuni ro'y beradi, u tabiiyligi, avvaldan tayyorlanmaganligi va suhbatdoshlarning muloqotga bevosita ishtirok etishlari bilan xarakterlanadi.

Genderli murojaat muammosida gapiruvchi shaxsning odatda o'z suhbatdoshining kim ekanligini bilishi muhim va bunday hollarda unga murojaatda xushmuomalalik formalaridan, performativ fe'llardan, olmoshlardan va h. foydalaniladi. Bu adresatning kommunikativ maqsadi, harakati, munosabati va gapning grammatik tizimida o'z aksini topadi. Masalan:

- *Telefondan uning yoqimli ovozi eshitib, o'zim shoshib qoldim, axir telefon raqamini unutib qo'ygandim-da!*

- *Xo'sh, endi esladimgi pondavoy? (yoshlar suhbatidan).*

Genderli markerlangan mavzu ko'p hollarda bir genderli suhbatdoshlar dialoglarida o'z aksini topadi, buni biz yuqoridagi misolda ikki yosh yigitning qizlar haqidagi mavzuda suhbatlashayotganini his qilamiz. Agar muloqot boshqa gender vakili bilan uyushtirilsa, mavzu markeri kamroq namoyon bo'ladi.

Ayollar muloqoti haqidagi tasavvurlar maxsus stereotiplarda, masalan “ayollar g'iybati”, “xotinlar suhbat”, erkaklarniki – madaniy ongida shakllangan “erkakcha suhbat”, “erkakchasiga gaplashmoq” birikmalarida namoyon bo'ladi. Ayollar muloqotiga erkaklarga nisbatan salbiy konnotatsiyali birliklardan foydalanish xarakterli bo'lsa, erkaklar muloqotini xarakterlovchi birliklarda ijobiy baholash ko'proq uchraydi.

- *Turqi ko'rsin, biram **sovuq basharali** odam ekanki! (ayollar suhbatidan).*

- *Voy-vuy! Munchalar **ofatijon** ekan (erkaklar suhbatidan).*

Erkaklar muloqotida mavzu unchalik qiziqarli bo'lmasa yoki u uchinchi bir kishining hayoti haqida ketsa, bu holda ularning suhbat “ayollarcha g'iybat” yoki “ayollarcha ezmalik” sifatida baholanadi.

Ma'lum bo'lishicha, ayollar erkin suhbat jarayonida tashqi ko'rinish, sog'liq, xarid qilingan narsalar, kiyimlar, bolalar, erkaklar boshqa odamlar va h. haqida fikr almashishni afzal ko'rishadi. Sotib olingan kiyim va narsa haqida fikr almashish ayollar orasida eng keng ommalashgan suhbat mavzusidir:

Men o'zinga boshni aylantirib yuboradigan darajada katta atlas yoqali oppoq shohi buluzka sotib oldim (ayollar nutqidan).

Adresat bilan kiyim-kechaklar, nimani-nima bilan kiyish haqidagi fikr almashuvlar, maslahatlar ayollar suhbatidagi eng muhim mavzulardir:

– *Oq sviterimni nima qilsam ekan-a, men uni endi hech qachon kiymayman.*

– *Olib-sotarlariga berib yubora qol (ayollar suhbatidan).*

Ayollar ko'pincha adresat bilan tashqi ko'rinish, sog'liq, ozish va bu orqali yaxshi ko'rinishga ega bo'lish haqida suhbatlashishadi. "Ozish sirlari", "go'zallik retseptlari" singari mavzular aynan ayollarga xos gender birikmalarda o'z ifodasini topadi.

Erkaklar esa o'zlaridagi xushbichimlik, tashqi ko'rinish mavzularda ko'pincha suhbatlashishni xush kurishmaydi, sog'lik haqidagi suhbatlar esa keksalik yoshidagi erkaklarga xos.

– *Haliyam yuribsanmi, birodar? Kampiring qalay?*

– *Xali baquvvatman. Har kuni jismoniy mashqlar qilaman. Kampirim ham otdek, mendan norozi emas (Keksalar suhbatidan).*

Erkaklar haqidagi mavzu ayollar muloqotida o'z adresati bilan erkaklar bilan yuz berayotgan shaxsiy munosabatlari, erkaklarning fazilatlarini (tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, xarakteri, jamiyatdagi mavqesi va b.) haqida suhbatlashadilar va bu mavzular ayollarnig o'zaro munosabatlar o'rnatishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

"Qizlar, tan olishim kerakki, menga Erkin yoqib qoldi. Aytinglar, qizlar, endi nima qilay?" (qizlar suhbatidan).

Boshqa kishilar hayotini muhokama qilish ayollar muloqotidagi muhim mavzularidan biridir va bu ularning "g'iybatkashligi" haqidagi tasavvur uyg'otadi.

"Bilasanmi, dugonajon, mening tengdoshlarimdagi o'zgarishlar menga juda yoqadi, ammo anavi ayol esa sirayam o'zgarmayaptida! (ayollar suhbatidan).

Shu nuqtai nazardan "mashhur kishilar hayoti"ni muhokama qilish ham ayollar muloqotining eng muhim mavzusidir.

Erkaklar muloqotini kuzatish natijalariga ko'ra ular o'z adresati bilan texnika, qurollar, mashinalar, ayollar, sport, xobbi, bahsli hisoblanuvchi tarixiy va siyosiy masalalar haqida suhbatlashadilar. Hatto ma'lum bir texnik qurilma ularning kasbiga taalluqli bo'lmasa ham, ular bunday yangiliklarga qiziqish bilan munosabat bildirishadi:

"Bunga qara, jo'ra, qanday zo'r narsa sotib oldim: klaviatura va infraqizil sichqoncha, divanda o'tirib olib, masofadan turib boshqarib bimalol kino tomosha qilish mumkin" (katta yoshli erkaklar suhbatidan).

Erkaklar muloqotida ham ayollar mavzusi genderli markerlangan. Ular eng avvalo ayollarning tashqi ko'rinishini va xulqini muhokama qilishadi, ayollarning shaxsiy sifat-fazilatlarini esa ular erkaklar hayotiga muayyan darajada ta'sir qilganidagina muhokama qilinadi. Masalan:

– *Jamilaga gap yo'q, u juda ketvorgan, ammo unga qanday yaqinlashishni bilmayman. Nima maslahat berasan?*

– *Og'zingdan so'lagingni oqizmay qo'yaqol, uning qallig'i bor (yosh yigitlar suhbatidan).*

O'zbeklar madaniyatida ayollar "faol salbiy emotsiyalarini namoyon qilishlarida erkaklarga nisbatan o'zini tiya olishlari lozim" degan ahloqiy-tarbiyaviy aqida mavjud. Erkaklar esa, o'z salbiy emotsiyalarini odatda g'azab, achchiqlanish va g'ijinishlarini uyatli ekspressiv so'zlar orqali ifodalashadi. Ayni paytda erkaklar og'riqni, ranjishni, hayratni ifodalovchi salbiy va ijobiy emotsiyalarini ifodalashda o'zlarini ancha tiyishadi. Masalan, yosh bolaga qilinadigan o'gitlarni qiyoslang:

– *Yig'lashni bas qil, nima, qiz bolamisan?*

– *Uni qara-ya, xuddi qizlardek qilpillaysan-a!.*

Kuzatuvlarning ko'rsatishicha, ayollar muloqot jarayonida o'z emotsiyalarini ko'proq namoyon qilishadi, ammo ularni o'z dugonalariga hamdardlik istaganlari holda gapirishadi. Bunday holat ayniqsa ranjishni, adresantdan hayratda qolganlikni, suhbat mavzusiga baholovchi munosabat bildirishda yorqin ifodalanadi:

– Voy-buy, o'zimni bosolmayapman, bu qanday muhtasham uy, yo'q, yo'q, o'zimni tutolmayman, bu yerdan ketaman, men unga qarolmayman. Dugonajon, hozir bug'ilib o'ltaman. Men ham shunday uyda yashashni xohlayman! Qanday yaxshi! (25 yoshli ayol gapi).

Kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, erkak va ayollarning adresatga nisbatan kommunikativ xulq-atvorlari emotsionallik darajasi bilan ham farqlanadi. Ammo bu farqlar "ekspressivlikning mavjudligi yoki mavjud emasligi" nuqtai nazardan emas, "ekspressivlikning kuchliligi yoki kuchsizligi" nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Masalan, qo'pol yo'naltirilgan nutq har doim erkaklarga tegishli deb baholanadi, Ayni paytda gender sreriotip qo'pol gapiruvchi ayollarga ham xos. Bunday holda ular "erkakshoda" deya baholanadilar. Xuddi shuningdek, ko'tarinki, his- hayojonli nutqni sof ayollarga xos nutq deya talqin qilishadi (Потапов М., 2000.).

Kundalik turmush tajribasidan biz aynan turli jins vakillarining o'zaro munosabatlaridan – gender belgilarini, erkak yoki ayol diqqatini qanday tortish usullarini, ular bilan muloqot qilish usullarini bilib olamiz.

Shunday qilib so'zlovchi nutqidagi pragmatik munosabatlar unga javob qaytaruvchi tinglovchida ham muayyan tarzda ijobiy, salbiy pragmatik munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Bunday munosabatlarni o'rganish shaxs genderini pragmatik tahlil qilishda keng imkoniyatlarni ochishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бородина, Т.В. К универсальности оппозиции мужской/женский: лицо человека в культурных моделях Запада и Востока // Международная конференция: «Язык и культура». – М., 2001. С. 129.
2. Вежбицка А. Язык. Культура. Познание. – М: «Русские словари», 1996. – 416 с.
3. Горошко Е.Н., Кирилина А.В. Гендерные исследования в лингвистике сегодня // Гендерные исследования. М., 1999. Вып. 2. С. 234-241.
4. Иссерс О.С. Проблемы создания «коммуникативного портрета»: тендерный аспект // Гендер: язык, культура, коммуникация. М., 2002. Вып. 2
5. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – Москва, «Институт социологии РАН», 1999.
6. Нефёдова Н.К. К проблеме использования гендерного анализа в лингвистических исследованиях // Вопросы лингвистики. 2001
7. Потапов В.В. Современное состояние гендерных исследований в англоязычных странах // Гендер как интрига познания. М., 2000. Вып. 1.
8. Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – М., 1973.
9. Abdumurotovich, Kuchiboyev Mansur. "Badiiy tarjimada tarjima transformatsiyalari-ingliz, rus va o'zbek tillari misolida." barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 3.12 (2023): 367-371.